

## **INGLIZ TILINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Kaxarova Mavlyuda Mukaramovna

Filologiya fanlari nomzodi, professor.

Yusupova Nodiraxon Erkinjon qizi

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

[Yusupovislombek1992@gmail.com](mailto:Yusupovislombek1992@gmail.com)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitish amaliyotida innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi tahlil etilgan bo‘lib, dars jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan metodlar xususida xulosalar berilgan.

### **Annotation**

In this article, the methodology of using innovative technologies in the practice of teaching english as a foreign language is analyzed and conclusions about some methods which can be used in such lessons are drawn.

### **Абстракт**

В данной статье анализируется методика использования инновационных технологий в практике преподавания английского языка как иностранного, и сделаны выводы о некоторых методах, которые можно использовать на таких уроках.

**Kalit so‘zlar:** kompyuter dasturlari, multimedia vositalari, innovatsion texnologiyalar, madaniyatlararo kompetensiya, metod.

**Key words:** software applications, multimedia devices, innovative technologies, cultural competence, method.

**Ключевые слова:** программные приложения, мультимедийные устройства, инновационные технологии, культурная компетентность, метод.

Innovatsion texnologiyalarning keng tarqalishi xorijiy tillarni o‘qitish jarayoniga o‘zining ijobiy ta'sirini ko‘rsatdi. Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar, jumladan multimedia vositalari chet tillarini o‘rganishning har qaysi bosqichini (boshlang‘ich

darajadagi o‘rganuvchidan to erkin so‘zlashuvchi darajasigacha) yanada samarali va qiziqarli kechishini ta‘minlab kelmoqda. Texnologiyalar ta‘lim sohasiga 1960-yillardan kirib kela boshladi, ayniqsa, internetning kashf etilishi bu jarayonni tezlashtirib yubordi. Zamonaviy texnologiyalar xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganish jarayonining barcha jabhalarida, xususan, gapirish, yozish, eshitish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda va madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda muhim ro‘l o‘ynab kelmoqda.

Ta‘lim sohasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan texnologiyalar qatoriga elektron qurilmalar, tizimlar va manbalar, jumladan kompyuter, mobil aloqa vositalari, planshetlar, bir qancha multimedia vositalari, ijtimoiy sahifalar, onlayn o‘yinlar, telefon va kompyuter dasturlari, saytlar (www.busu.com, coursera, memrusi, 123TeachMe, mango coursera, FSI language courses, Internet polyglot, LearnALanguage.com, MIT's Global languages, Kahoot, StudyStack...) va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Zamonaviy texnologiyalarning ta‘lim sohasiga kirib kelishi til o‘rganishning an‘anaviy shaklini o‘zgartirdi va o‘quvchilarning o‘rganilayotgan tildagi so‘zlashuv va aloqa qilish miqdorini uzayishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Misol uchun, internet tarmog‘idagi Hellotalk vebsahifasi orqali o‘quvchilar o‘zi o‘rganayotgan tilda boshqa millat vakillari bilan (mazkur til ona tili bo‘lgan) suhbatlashishlari mumkin. Bu sahifaning afzalligi shundaki, u til o‘rganuvchilarga haqiqiy hayotda duch kelishlari mumkin bo‘lgan suhbatlarda so‘zlashish mahoratini oshirish, so‘zlarning to‘g‘ri talaffuz shakllarini o‘rganishga yordam beradi.

Til o‘rganishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati bir qator tadqiqotchilar tomonidan keng tadqiq etilgan. Jumladan, Ghavifekr va Rosdy nomli tadqiqotchilar o‘z tadqiqotlari nihoyasida shunday xulosaga kelganlar: "til o‘rganishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish talabalarni ijodkorona fikrlashga undaydi". Lekin ba‘zi tadqiqotlar natijasida texnologiyalarning ta‘lim jarayoniga, xususan, o‘quvchilar xulq-atvori va dars nazoratiga salbiy ta‘sirlari isbotlangan. Masalan, taniqli tadqiqotchi Ushida texnologiyalar va ular yaratgan qulayliklar talabalarda uyga topshiriqlarni bajarishni ortga surishga moyillikni oshiradi deb fikr bildirgan.

Ghavifekr va Rosdy o‘z o‘rganishlari davomida internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish talabalarning diqqat-e'tiborini o‘ziga tortishi, bu esa ularni darsdan chalg‘itishi, o‘qituvchilarga esa dars jarayonini boshqarishni yanada qiyinlashtirib yuborishini aniqlaganlar. Mashxur metodist Baldani esa internetda talabalar e'tiboriga havola etilgan barcha ma'lumotlar ham ishonchli emasligini ta'kidlab o‘tgan.

Texnologiyalarning ta'lim jarayonlariga tadbiiq etilishining bir qator afzallik va noafzallik tomonlari aniqlangan bo‘lsada, ular til o‘qitish va o‘rganishda keng foydalanib kelinmoqda. Ingliz tilini o‘qitishda, ayniqsa o‘quvchilarda matn ustida ishlash kompetensiyalarini shakllantirishda multimedia vositalarining o‘rni beqiyosdir. Ma'lumot uchun shuni ta'kidlab o‘tishimiz joizki, matn bilan ishlash darslari 3 bosqichda, jumladan o‘qishdan oldingi (pre-reading stage), o‘qish davomidagi (while-reading stage) va o‘qishdan keyingi bosqichlarda tashkil etiladi. Mazkur bosqichlarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning berilgan matnni tushinish darajasini oshiradi. Misol uchun, o‘qishdan oldingi bosqichda (pre-reading stage) proyektor va interaktiv doska yordamida o‘qituvchi o‘qilajak matnning bosh g‘oyasini qamrab oluvchi kichik video namoyish qilishi va o‘quvchilarda matn haqida ilk tasavvurlarni shakllantirishi mumkin. Shuningdek, matnni o‘qishga tayyorgarlik bosqichini yanada mazmunli va qiziqarli qilish uchun maxsus internet saytlaridan (<https://www.text2mindmap.com>, <https://www.spiderscribe.net>) foydalanish tavsiya etiladi. Bunday saytlar yordamida matn yuzasidan klasterlar yaratishda oddiy doska va mel kabi an'anaviy yordamchi vositalardan foydalanish o‘rniga yorqin ranglar va shakllar bilan o‘quvchilar e'tiborini o‘ziga jalb qiluvchi dasturlarga murojaat qilish qator qulayliklarni yaratadi. Buning uchun, kerakli saytga tashrif buyurish, o‘quvchilar bilan birgalikda mavzuni umumlashtiruvchi klaster hosil qilish va uni kompyuter xotirasida saqlab, takrorlash darslarida qayta foydalanish mumkin. Eng muhimi shundaki, bunday metod nafaqat sinf xonasida, balki masofaviy ta'lim shaklida ham qo'llanilish imkoniyatiga ega.

Matnni o‘qish bosqichida (while-reading stage) ham innovatsion texnologiyalar ishtirokida bir qator metodlarga darsni yanada mazmunli va samarali o‘tkazish

maqsadida murojaat qilish mumkin. Masalan, kompyuter va ovoz kuchaytiruvchi qurilma yordamida o‘qituvchi berilgan matnni audio formatda o‘quvchilarga taqdim etishi, bu orqali o‘quvchilarga berilgan matndagi har bir so‘zning talaffuz shaklini tanishtirishi ijobiy natijalar keltirib chiqaradi. Yosh o‘quvchilar guruhi uchun esa matn asosida yaratilgan animatsion videolardan foydalanish o‘quvchilarni darsga qiziqtirish uchun samarali usul hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu matnga oid har bir ma'lumot (matn mazmuni, personajlar ismi, yangi so‘zlar va hakoza) o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi. Xususan, “chet tili darslarida adabiy matnlardan foydalanish o‘quvchi-talabalarni og‘zaki nutqini rivojlantiribgina qolmay, balki tili o‘rganilayotgan mamlakatga nisbatan qiziqishlarni orttirishda, dunyoqarashlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi” [1] – deb yozadi mashhur o‘zbek metodisti Z. Pazilova o‘zining “Tillar o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari” nomli risolasida.

O‘qish darsining so‘nggi bosqichida (post-reading stage) ham innovatsion texnologiyalar ishtirokida olib boriladigan turli metod va mashg‘ulotlarga murojaat qilish mumkin. Masalan, o‘quvchilarga kichik guruhlarda yoki individual holatda onlayn prezentatsiya yaratish topshirig‘i berilishi tavsiya etiladi. Bunday prezentatsiyalar yaratish uchun maxsus internet saytlaridan (misol uchun, educreations) foydalanish mumkin. Bu orqali o‘quvchilarni mavzu yuzasidan ko‘proq izlanishga da’vat qilish va ularda kompyuter texnologiyalari bilan ishlash kompetensiyasini takomillashtirish lozim.

Uyga topshiriqlar berish uchun ham maxsus ishlab chiqilgan internet sahifalari (google classroom, ClassDojo) mavjud bo‘lib, ular nafaqat topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlabgina qolmay, balki o‘qituvchi va ota-onalar o‘rtasida aloqa ko‘prigi vazifasini bajara oladi. Bu sahifalarga o‘tilgan mavzu yuzasidan yozib olingan videosi joylashtirilishi va o‘quvchilarga mavzuni takrorlagn holda bilimlarni mustahkamlash, matn haqida o‘z xulosalarini yozish va uni mazkur platformada saqlab qoldirish topshirig‘i berilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Z. Pazilova "Tillar o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari". Toshkent-2023
2. Ariana Violić-Koprivec."Use of digital technology in learning french and italian as a foreign language". European Journal of Foreign Language Teaching Volume-6, Issue-3 2022
3. Dilnoza N. Taylakova. "Modern educational innovative technologies in teaching native Uzbek language". European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 7, 2020
4. Krasnova A. A., Belyaev M. I., Solov'ev A. V. Technologies for creating elearning tools: 2nd edition. - Moscow: MGIU, 2002.
5. Khodzhaeva Sh. A. Innovative technologies of teaching a foreign language // Young scientist. - 2016. - No. 25.